Viktorina qoidalari

Iqlim viktorinasi - bu “Iqlim oʻzgarishi” mavzusidagi qiziqarli savollar keltirilgan kartalarga asoslangan oʻyin. Viktorina savollari “Iqlim qutichasi” qoʻllanmasini toʻldirib, materialni yaxshiroq tushunishga va tezda takrorlashga yordam beradi.

Toʻplamga 100 ta savol kartalari kiradi. Har bir savol uchun toʻrtta javobni tanlash mumkin boʻlib, ulardan faqat bittasi toʻgʻri. Har bir toʻgʻri javob uchun viktorina ishtirokchisiga bitta ball hisoblanadi. Eng koʻp ball toʻplagan ishtirokchi gʻolib boʻladi.
Iqlim viktorinasining barcha savollari “Iqlim qutichasi” qoʻllanmasining boʻlimlariga muvofiq uchta mavzuga boʻlingan:

1. Iqlim oʻzgarishi muammosi.
2. Iqlim oʻzgarishi tabiat va odamlarga qanday ta’sir koʻrsatadi.
   Uning muqarrar oqibatlariga moslashish mumkinmi?
3. Xavfli iqlim oʻzgarishi oqibatlari qay tarzda oldi olinishi mumkin?

Boshlovchiga yordam tariqasida savollarga toʻgʻri javoblar roʻyxati alohida “Javoblar” kartasida keltirilgan.